

NAVOIY ASARLARIDA ABDURAHMON JOMIY SIYMOSINING BADIY-ESTETIK TALQINI VA PIR-MURIDLİK KONSEPSIYASI

Nizomiddinova Ma'suma Abdumo'min qizi,
Farg'ona davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Alisher Navoiy asarlarida Abdurahmon Jomiy obrazining shakllanishi, uning ma'naviy-estetik talqini hamda pir-muridlik munosabatlarining badiiy ifodasi tadqiq etiladi. Tadqiqotda Jomiy siymosining tarixiy shaxsdan badiiy-ma'naviy ideal darajasiga ko'tarilishi "Hayrat ul-abror", "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Sab'ai sayyor", "Saddi Iskandariy", "Majolis un-nafois", "Nasoyim ul-muhabbat", "Muhokamat ul-lug'atayn" va "Mahbub ul-qulub" asarlari asosida tahlil qilindi. Tadqiqot davomida qiyosiy-tipologik, poetik, hermenevtik va matniy tahlil usullaridan foydalanildi. Natijada Navoiy Jomiy nafaqat tarixiy shaxs yoki ustoz sifatida, balki tasavvufiy-ma'rifiy komillik timsoli sifatida talqin qilgani aniqlandi. Shuningdek, Jomiy obrazi orqali Navoiy o'zining estetik va tasavvufiy qarashlarini ifodalagani asoslab berildi.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, pir-muridlik, tasavvuf, badiiy obraz, ideallashtirish, ma'naviy komillik, manoqib, mumtoz adabiyot.

Аннотация. В данной статье исследуется художественно-эстетическая интерпретация образа Абдурахмана Джами в произведениях Алишера Навои, а также особенности отражения отношений «пир-мурид». На основе произведений «Хайрат ул-аброр», «Фархад и Ширин», «Лейли и Меджнун», «Сабъаи сайёр», «Садди Искандарий», «Маджолис ун-наfois», «Насойим ул-мухаббат», «Мухокамаат ул-лугатайн» и «Махбуб ул-кулуб» анализируется процесс превращения Джами из исторической личности в духовно-художественный идеал. В исследовании использованы сравнительно-типологический, герменевтический, поэтический и текстологический методы анализа. Установлено, что Навои воспринимал Джами не только как наставника, но и как символ духовного совершенства.

Ключевые слова: Алишер Навои, Абдурахман Джами, пир-мурид, суфизм, художественный образ, идеализация, духовное совершенство, manoqib, классическая литература.

Abstract. This article examines the artistic and aesthetic interpretation of the image of Abdurahman Jami in the works of Alisher Navoi and analyzes the literary expression of the pir-murid relationship. Based on the works "Hayrat ul-abror", "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Sab'ai sayyor", "Saddi Iskandariy", "Majolis un-nafois", "Nasoyim ul-muhabbat", "Muhokamat ul-lug'atayn", and "Mahbub ul-qulub", the study investigates the transformation of Jami from a historical figure into a spiritual and artistic ideal. Comparative-typological, poetic, hermeneutic, and textual methods were employed in the research. The study concludes that Navoi interpreted Jami not merely as a historical personality or teacher, but as a symbol of spiritual and moral perfection.

Keywords: Alisher Navoi, Abdurahman Jami, pir-murid relationship, Sufism, artistic image, idealization, spiritual perfection, manoqib, classical literature.

Kirish. Sharq mumtoz adabiyotida ustoz-shogirdlik munosabatlari nafaqat ilmiy-adabiy aloqalar tizimi, balki ma'naviy-ruhiy kamolot maktabi sifatida ham shakllangan. Ayniqsa, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy o'rtasidagi munosabatlar Sharq adabiy tafakkuri tarixida alohida hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Bu yaqinlik oddiy zamondoshlik doirasidan chiqib, pir-muridlik, ma'naviy vorislik, tasavvufiy hamfikrlik hamda estetik qarashlarning uyg'unlashuvi asosida rivojlangan.

Navoiy uchun Jomiy shunchaki zamondosh shoir emas edi. U murakkab badiiy-falsafiy masalalarda yo'l ko'rsatuvchi, tasavvufiy-axloqiy kamolot sari yetaklovchi ruhiy tayanch vazifasini bajargan. Shu sababli Navoiy asarlarida Jomiy obrazi oddiy tarixiy

shaxs emas, balki komil inson, ma'naviy peshvo va ilohiy haqiqatni anglagan mutafakkir sifatida talqin qilinadi.

Jomiyning hayotlik davridayoq Navoiy asarlarida badiiy obraz sifatida shakllanishi alohida ilmiy ahamiyatga ega. Chunki Sharq adabiyotida aksariyat hollarda ideallashtirilgan obrazlar shaxs vafotidan keyin manoqibiy yo'sinda yaratilgan. Navoiy esa Jomiyning hayotlik chog'idayoq komillik timsoli sifatida tasvirlay boshlaydi. Bu esa Navoiy poetikasida tarixiy shaxsni badiiy idrok etishning o'ziga xos uslubini ko'rsatadi.

Sharqshunos olim E.E.Bertels "Navoiy" nomli tadqiqotida ikki shoarning 1469-yilda Hirotda uchrashganini, ularning pir-muridlik munosabatlari esa 1476-yilda rasman shakllanganini ta'kidlaydi [1]. Ayrim tadqiqotlarda esa bu munosabatlarning ildizi 1459–1460-yillarga borib taqalishi qayd etiladi. O'zbek adabiyotshunosligida esa bu jarayon 1464–1465-yillar bilan bog'lanadi. Demak, Jomiy va Navoiy munosabatlarini aniq sana bilan emas, balki uzoq davom etgan ma'naviy yaqinlashuv jarayoni sifatida baholash maqsadga muvofiqdir.

Mazkur maqolaning maqsadi – Navoiy asarlarida Jomiy obrazining ma'naviy-estetik talqinini, pir-muridlik konsepsiyasining poetik ifodasini hamda badiiy ideallashtirish vositalarini aniqlashdan iborat.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Jomiy va Navoiy munosabatlari sharqshunoslik hamda navoiyshunoslikda ko'plab tadqiqotlarga mavzu bo'lgan. E.E.Bertels, A.Hayitmetov, N.Mallayev, I.Haqqulov, Sh.Hayitov kabi olimlar ushbu masalaning turli jihatlarini o'rganishgan.

Tadqiqotchi Sh.Hayitov "Alisher Navoiy nasrida komil inson obrazi" nomli tadqiqotida Navoiy manoqiblaridagi komil inson konsepsiyasini tahlil qilib, Jomiy obrazining tasavvufiy-estetik mohiyatiga alohida e'tibor qaratadi [2:68]. Olimning fikricha, Navoiy Jomiyning nafaqat tarixiy shaxs, balki ma'naviy-axloqiy mezon sifatida talqin qiladi.

Manoqib janri haqidagi ilmiy qarashlar ham tadqiqot uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qildi. "Manoqib" arabcha "fazilat", "maqtovga loyiq sifatlar" ma'nolarini anglatib, dastlab diniy-tasavvufiy shaxslarning ibratli hayotini tasvirlash asosida shakllangan [3:289]. Keyinchalik mazkur janr tasavvufiy va badiiy yo'nalishda rivojlandi.

Tadqiqot davomida quyidagi metodlardan foydalanildi:

qiyosiy-tipologik tahlil;

poetik tahlil;

hermenevtik yondashuv;

matniy-komparativ usullar.

Shuningdek, Navoiy asarlaridagi isti'ora, tashbeh, mubolag'a va tadrij san'atlarining Jomiy obrazini shakllantirishdagi o'rni o'rganildi.

Natijalar. Jomiy obrazining tasavvufiy-ma'rifiy talqini. Tadqiqot natijasida Navoiy asarlarida Jomiy obrazi bir necha poetik qatlamlarda shakllangani aniqlandi. Eng avvalo, Jomiy tariqat peshvosi sifatida talqin qilinadi. "Hayrat ul-abror" dostonida Navoiy:

"Ulki bugun qutbi tariqatdur ul,
Koshifi asrori haqiqatdur ul.
Ko'ksi haqoyiq duri ganjinasi,
Ko'ngli maoniy yuzi oynasi" [4:52]

deya Jomiy siymosini tasavvufiy-ma'rifiy mukammallik darajasiga ko'taradi.

Mazkur baytlarda "qutb", "ganjina", "oyna" kabi tushunchalar ramziy-estetik yuklama kasb etadi. Bu yerda Jomiy oddiy ustoz emas, balki ilohiy haqiqatni anglashda murshid maqomiga ko'tariladi. Isti'ora va tadrij san'atlari obrazni bosqichma-bosqich yuksaltirishga xizmat qiladi. Avval Jomiy tariqat peshvosi sifatida beriladi, keyinchalik esa ma'naviy mukammallik timsoliga aylantiriladi.

"Farhod va Shirin"dagi Jomiy obrazi

"Farhod va Shirin" dostonida Navoiy Jomiyni "shayx ul-islomiy" sifatida tilga olib, uning ilmiy va diniy mavqeini alohida ta'kidlaydi. "Labtashna vodiyy hayrat" hamda "ma'no bodasining jomi" kabi obrazlar orqali Jomiy ruhiy chanqoqlikni qondiruvchi ma'naviy manba sifatida tasvirlanadi. Mazkur poetik tasvirlar Jomiyning nafaqat diniy ulamo, balki ruhiy yetuk shaxs sifatida talqin qilinishini ko'rsatadi.

"Layli va Majnun" hamda "Sab'ai sayyor"dagi talqin

"Layli va Majnun" dostonida Navoiy Jomiy obrazini "jahontob axtar", "hidoyat ma'danining gavhari", "maoniy jomining rind" kabi obrazlar orqali tasvirlaydi. Bu yerda Jomiy ma'naviy-ma'rifiy yetuklik timsoli sifatida gavdalanadi.

"Sab'ai sayyor"da esa Jomiy "gavhar afshon xabardorlik" va "sipehr makon xizmatkorligi" kabi tashbehlar bilan ulug'lanadi. Shoir Jomiy siymosida ruhiy saxovat, botiniy poklik va ilmiy salohiyat uyg'unligini ko'rsatadi.

"Saddi Iskandariy"dagi poetik ideallashtirish. "Saddi Iskandariy" dostonida Jomiy "so'z durlari", "nazm nizomi", "gavharlar intizomi" kabi tashbehlar orqali tasvirlanadi. Bu tasvirlarda Jomiy individual shaxs sifatida emas, balki poetik mukammallik mezoni sifatida talqin qilinadi. Natijada Jomiy obrazi tarixiy-biografik qiyofadan chiqib, badiiy-estetik idealga aylanadi.

"Majolis un-nafois"dagi Jomiy siymosi. "Majolis un-nafois" asarida Navoiy Jomiyni nihoyatda yuksak darajada ulug'laydi:

"Hazrat Mahdumiy Shayxul-islomiy Mavlono Nuriddin Abdurahmon Jomiy..." [5:735].

Navoiy Jomiyni butun ilm ahlining peshvosi sifatida tasvirlaydi va quyidagi ruboiy bilan uning ma'naviy salohiyatini ulug'laydi:

"Yo rab, bu maoniy durrining ummoni,
Bu donishu fazl gavharining koni,
Kim aylading oni olam ahli joni,

Olam eliga bu jonni tut arzoniy” [5:735].

Mazkur ruboiyda isti’ora, mubolag‘a va tashbeh san’atlari uyg‘unlashgan holda Jomiy obrazining ilohiy-ma’rifiy komilligi ochib beriladi.

“Nasoyim ul-muhabbat”dagi ilmiy-ma’naviy vorislik. “Nasoyim ul-muhabbat” asarida Navoiy Jomiyning “Nafahot ul-uns” asarini asosiy manba sifatida tan oladi. Bu esa Jomiyning Navoiy ma’naviy dunyoqarashida markaziy manba bo‘lganini ko‘rsatadi. Navoiy Jomiy: ustoz, sayyid, tasavvufiy tafakkur rahnamosi va ma’naviy ilhom manbai sifatida talqin qiladi [6:412-416]. Bu holat Navoiy tafakkurida Jomiy obrazi markaziy ma’naviy-ijodiy manba maqomiga ega bo‘lganini tasdiqlaydi.

“Mahbub ul-qulub”dagi pir-muridlik konsepsiyasi. “Mahbub ul-qulub” asarida Navoiy Jomiy bilan bo‘lgan pir-muridlik munosabatlarini alohida e’tirof etadi [7:4-6]. Shoir o‘zini Jomiy “muhabbat qadahidan” bahramand bo‘lgan murid sifatida ko‘rsatadi.

Bu yerda “muhabbat qadahi” tasavvufiy ma’rifat va ruhiy poklanish ramzi sifatida qo‘llangan [8:288-289]. “Foniy sifat bo‘lish” tushunchasi esa tasavvufdagi “fano” konsepsiyasini ifodalaydi. Navoiy she’riyatni oddiy badiiy ifoda emas, balki ilohiy haqiqatni anglash vositasi sifatida talqin qiladi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, Navoiy asarlarida Jomiy obrazi oddiy biografik tasvir emas. Shoir Jomiy orqali: komil inson konsepsiyasi, tasavvufiy kamolot, ma’naviy yetuklik va estetik mukammallik g‘oyalari ifodalagan.

Muhim jihat shundaki, Navoiy Jomiy faqat shaxsiy ustoz sifatida emas, balki ma’naviy-me’yoriy ideal sifatida talqin qiladi. Bu esa manobiy tafakkur va tasavvuf poetikasining mumtoz adabiyotdagi uyg‘unlashuvini namoyon etadi. Jomiy obrazining ideallashtirilishi Sharq mumtoz adabiyotidagi “komil inson” konsepsiyasi bilan chambarchas bog‘liq. Navoiy tasvirida Jomiy individual shaxs emas, balki ma’naviy barkamollikning umumlashgan timsoliga aylantiriladi.

Bundan tashqari, tadqiqot Jomiy obrazining Navoiy poetik tizimida metodologik vazifa ham bajarganini ko‘rsatdi. Shoir o‘zining tasavvufiy-estetik qarashlarini aynan Jomiy obrazi orqali asoslaydi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari Alisher Navoiy ijodida Abdurahmon Jomiy obrazi oddiy tarixiy-biografik shaxs darajasida emas, balki yuksak ma’naviy-estetik ideal sifatida shakllantirilganini ko‘rsatdi. Navoiy Jomiy faqat ustoz yoki zamondosh mutafakkir sifatida emas, balki tasavvufiy tafakkurda komil inson maqomiga erishgan, haqiqat sirlarini anglagan ruhiy peshvo sifatida talqin qiladi. Shu jihatdan Jomiy obrazi Navoiy poetik tizimida ma’naviy barkamollik, ilmiy yetuklik va ruhiy poklikning umumlashgan timsoliga aylanadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, Navoiy asarlarida Jomiy siymosi bosqichma-bosqich ideallashtiriladi. Shoir uni “qutbi tariqat”, “koshifi asrori haqiqat”, “nazm nizomi”, “maoniy jomining rind” kabi yuksak poetik obrazlar orqali tasvirlaydi. Bu esa Jomiy shaxsining oddiy insoniy fazilatlar bilan emas, balki tasavvufiy-irfoniy komillik mezonlari

asosida yoritilganini ko'rsatadi. Ayniqsa, isti'ora, mubolag'a, tadrij va ramziy tasvir vositalarining keng qo'llanishi Jomiy obrazining badiiy-estetik qudratini yanada kuchaytirgan.

Maqolada o'rganilgan "Hayrat ul-abror", "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Sab' ai sayyor", "Saddi Iskandariy", "Majolis un-nafois", "Nasoyim ul-muhabbat", "Muhokamat ul-lug' atayn" hamda "Mahbub ul-qulub" asarlari Jomiy obrazining turli poetik va tasavvufiy qatlamlarini namoyon etishi bilan ahamiyatlidir. Mazkur asarlarda Jomiy ba'zan tariqat peshvosi, ba'zan ma'naviy yo'l ko'rsatuvchi murshid, ayrim hollarda esa poetik mukammallik mezoni sifatida talqin qilinadi. Natijada Jomiy obrazi Navoiy badiiy tafakkurining markaziy ma'naviy timsollaridan biriga aylanadi.

Shuningdek, tadqiqot davomida Navoiy va Jomiy o'rtasidagi munosabatlar Sharq adabiyotidagi ustoz-shogirdlik an'alarining eng yuksak namunalaridan biri ekanligi aniqlandi. Bu munosabat oddiy ijodiy yaqinlik bilan cheklanib qolmay, ilmiy, ruhiy va tasavvufiy vorislik tamoyillariga asoslangan murakkab ma'naviy tizim sifatida shakllangan. Navoiy Jomiy siymosi orqali o'zining tasavvufiy-estetik konsepsiyasini shakllantiradi va komil inson haqidagi qarashlarini poetik tizim darajasiga olib chiqadi.

Demak, Alisher Navoiy ijodida Abdurahmon Jomiy obrazi nafaqat tarixiy shaxs yoki ustoz sifatida, balki Sharq mumtoz adabiyotidagi ma'naviy barkamollik, ilohiy haqiqat va estetik mukammallikni mujassam etuvchi universal badiiy timsol sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bertels E.E. Navoiy. – Toshkent: Fan, 1965. – B. 215–218.
2. Hayitov Sh. Alisher Navoiy nasrida komil inson obrazi (ulug' shoir manoqiblari asosida). Filologiya fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Farg'ona, 2020. – B. 72–73.
3. Alisher Navoiy ensiklopediyasi. II jild. Mualliflar guruhi. – Toshkent: Credo Print, 2024. – B. 289.
4. Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. O'n jildlik. Birinchi jild. Hayrat ul-abror. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011. – B. 52–53.
5. Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. O'n jildlik. Beshinchi jild. Majolis un-nafois. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. – B. 735–736.
6. Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – B. 412–414.
7. Sultonmurod Olim. Navoiy nechta janrda ijod qilgan? // INFOLIB axborot-kutubxona jurnali. – B. 4–6.
8. Islom ensiklopediyasi. A–H. Shayx Abdulaziz Mansur tahriri ostida. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – B. 288–289.